

HAMSHIRALIK TA'LIMIDA AUTENTIK KOMPETENSIYANING O'ZIGA XOS JIHATLARI: XORIJIY TAJRIBALAR

SPECIFIC ASPECTS OF AUTHENTIC COMPETENCY IN NURSING EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCES

Karimova Madinabonu Ilxomjon qizi

Farg'onan jamoat salomatligi tayanch doktoranti,

[karimova94madina@gmail.com](mailto:kirimova94madina@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada hamshiralik ta'limalda autentik kompetensiyani shakllantirishning o'ziga xos jihatlari va uning xorijiy tajribalar asosida rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tillarni bilish odamlar o'rtasidagi do'stlik va o'zaro tushunishni mustahkamlashga yordam beradi.⁶⁸ AQSh, Germaniya, Kanada va Skandinaviya davlatlarining ilg'or ta'lim yondashuvlari o'r ganilib, ularning milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish yo'nalishlari ko'rsatib berilgan. Autentik kompetensiyaning amaliy mashg'ulotlar, simulyatsiya texnologiyalari, reflektiv amaliyot va mentorlik tizimi orqali rivojlantirish usullari yoritilgan. Mazkur tadqiqot milliy hamshiralik ta'limi takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: hamshiralik ta'limi, autentik kompetensiya, xalqaro tajriba, innovatsion texnologiyalar, simulyatsiya, reflektiv amaliyot.

Abstract: This article examines the specific aspects of developing authentic competency in nursing education and its enhancement based on international experiences. The advanced educational approaches of the USA, Germany, Canada, and Scandinavian countries are analyzed, highlighting their potential integration into national education systems. The study explores methods for improving authentic competency through practical training, simulation technologies, reflective practice, and mentorship systems. The research provides recommendations for advancing national nursing education and aligning it with international standards.

Keywords: nursing education, authentic competency, international experience, innovative technologies, simulation, reflective practice.

Kirish. Hamshiralik kasbi zamonaviy tibbiyot tizimining ajralmas qismi bo'lib, uning rivoji sog'lijni saqlash tizimining samaradorligi va bemorlarning sifatli

⁶⁸ Анваров, А., & Ирискулова, Ф. (2023). ЧЕТ ТИЛЛАРИНИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ТИББИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИНИНГ КАСБИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. *Engineering problems and innovations*.

parvarishlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, hamshiralarni tayyorlash jarayonida autentik kompetensiyalarning shakllantirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajribalar asosida hamshiralik ta'limida autentik kompetensianing o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish va ushbu tajribalarni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Autentik kompetensiya tushunchasi va uning ahamiyati

Autentik kompetensiya – bu nazariy bilimlarni amaliyot bilan uzviy bog'lash, real kasbiy faoliyat sharoitida samarali ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va muammolarni hal qilish qobiliyatidir. Autentik kompetensiyani rivojlantirishning muhim jihatlaridan biri autentik materiallar bilan ishlashdir. Bu materiallarga tibbiy hujjatlar, bemorlarni chiqarish varaqalari, bemor parvarishi bo'yicha ko'rsatmalar hamda tibbiyot xodimlari o'rtaсидagi muloqotlar kiradi.⁶⁹ Hamshiralik sohasida bu kompetensiya bemorlarga sifatlari tibbiy xizmat ko'rsatish, tezkor qaror qabul qilish, kommunikativ malakalarga ega bo'lish va kasbiy etika qoidalariga rioya qilishni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda autentik kompetensiyani shakllantirish hamshiralik ta'limining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu jarayonda integratsiyalashgan o'quv usullari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. O'quv jarayonini real ish sharoitlariga yaqinlashtirish uchun simulyatsion mashg'ulotlar, amaliy treninglar va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish metodlaridan foydalaniladi. Talabalar uchun haqiqiy tibbiyot muassasalari bilan hamkorlikda tashkil etilgan amaliyot dasturlari, kasbiy tajriba orttirishga yo'naltirilgan klinik kuzatuvlar va interaktiv treninglar autentik kompetensianing rivojlanishiga xizmat qiladi.

Dunyo miqyosida autentik kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimlari turlicha yondashuvlarni taklif qilmoqda. Masalan, AQShda hamshiralik ta'limida amaliyotga asoslangan o'quv modullari keng qo'llanilib, talabalar simulyatsiya markazlarida murakkab klinik holatlarni mustaqil tahlil qilish va ularga javob berish malakalarini rivojlantiradilar. Germaniyada esa hamshiralik ta'limi nazariya va amaliyotni birlashtirish tamoyiliga asoslanib, kasbiy faoliyatni real sharoitda sinab ko'rishga e'tibor qaratiladi. Kanada va Skandinaviya davlatlarida autentik kompetensiya shaxsiy va guruhiy loyihalar orqali rivojlantiriladi, bunda talabalar kasbiy faoliyatning turli jahbalarini o'rganish bilan birga, o'z mustaqil qaror qabul qilish qibiliyatlarini shakllantiradilar.

Autentik kompetensiyani rivojlantirish uchun pedagogik yondashuvlar orasida muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat va reflektiv amaliyot muhim o'rin tutadi. Muammoli ta'lim usuli talabalarni real kasbiy vaziyatlarga moslashishga undaydi, loyihaviy faoliyat esa ularga mustaqil ish olib borish imkonini yaratadi. Reflektiv amaliyot orqali esa

⁶⁹ Madinabonu, K. (2025). DEVELOPMENT OF AUTHENTIC COMPETENCE IN TEACHING GERMAN TO NURSES. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(6), 182-184.

talabalar o‘z tajribalarini tahlil qilib, kelgusida kasbiy mahoratlarini yanada takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, autentik kompetensiyani shakllantirishda zamonaviy texnologiyalarning roli ham katta. Masalan, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari yordamida talabalar murakkab klinik holatlarni xavfsiz muhitda sinovdan o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Simulyatsiya dasturlari orqali turli tibbiy holatlarni interaktiv tarzda o‘rganish va ularga mos strategiyalar ishlab chiqish amaliyotda samarali natijalar bermoqda. O‘quvchilar va mutaxassislarni o‘qitish va shug‘ullantirishda yordam berish uchun foydalaniladigan ushbu simulyatsiyalar ularga sohada mustaqil qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va ma’lumotlarni taqdim etish uchun mo‘ljallangan.⁷⁰

Xulosa qilib aytganda, autentik kompetensiya nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki ularni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, kasbiy muhitda samarali ishslash malakalarini shakllantirishning eng muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. ⁷¹ Hamshiralik ta’limida bu kompetensiyani rivojlantirish zamonaviy texnologiyalar, innovatsion ta’lim metodlari va amaliy mashg‘ulotlar orqali amalga oshirilmoqda. Tibbiyot yo‘nalishida chet tili ta’limida ushbu ehtiyojlarni o‘rganish kelajakdagi tibbiyot talabalari chet tilidagi zaif tomonlarini aniqlash imkonini berdi. O‘qituvchilarning turli ta’lim platformalaridan samarali foydalanishlari uchun ularning kasbiy mahoratini eng yuqori darajada shakllantirish va muntazam ravishda rivojlantirib borish zarur.⁷² Shu boisdan, kelajakda hamshiralik sohasidagi ta’lim tizimi yanada rivojlanib, kasbiy malaka va sifatli xizmat ko‘rsatish darajasining oshishiga xizmat qilishi kutilmoqda.

Xorijiy mamlakatlardagi ilg‘or tajribalar

1. **AQSh modeli:** AQShning ko‘plab tibbiyot universitetlarida “Problem-based learning” (PBL) va “Simulation-based learning” (SBL) metodlari keng qo‘llaniladi. Bu usullar yordamida talabalar real klinik holatlar asosida tahlil yuritish, diagnostika qo‘yish va tibbiy muolajalarni amalga oshirish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradilar. Bundan tashqari, AQShdagi tibbiyot oliygohlarida talabalarni kasbiy hayotga tayyorlashning uzlusizligi ta’milnadi. Talabalar simulyatsiya xonalari, virtual reallik texnologiyalari hamda haqiqiy klinik sharoitlarda mashq qiladilar. Shu bilan birga, hamshiralalar uchun kasbiy rivojlanish dasturlari ham mavjud bo‘lib, ular orqali o‘quvchilar amaliy tajriba orttirishadi.

⁷⁰ Digitaliyeva, N. (2023). PEDIATRIYADA SIMULYATSIYADAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, 1(8). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/446>

⁷¹ Karimova, M. (2022). BESONDERHEITEN DES FREMDSPRACHLERNENS AN EINER MEDIZINISCHEN HOCHSCHULE WÄHREND DER COVID-19-PANDEMIE. *Архив научных исследований*, 2(1).

⁷² Karimova, M. (2023). EFFEKTIVE WEGE ZUR ENTWICKLUNG DER BERUFLICHEN KOMMUNIKATIVEN KOMPETENZEN IM FREMDSPRACHUNERRICHT BEI ZUKÜNFTIGEN MEDIZINISCHEN FACHKRÄFTEN. In *Fergana state university conference* (pp. 32-32).

2. Germaniya tajribasi: Germaniyada hamshiralik ta’limi nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni bir-biri bilan chambarchas bog‘lash asosida olib boriladi. “Dual system” modeli asosida talabalar o‘qish davrida klinikalarda ishlab, haqiqiy kasbiy faoliyatni o‘zlashtirishlari mumkin. Bu esa ularning autentik kompetensiyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Germaniyada hamshiralik ta’limining sifati yuqori darajada yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, klinikalardagi amaliyot doirasida talabalar nafaqat bemorlarga xizmat ko‘rsatish, balki ularning hissiy va psixologik ehtiyojlarini tushunishga ham o‘rgatiladi.

3. Kanada tajribasi: Kanadada “Competency-based education” (CBE) tamoyili asosida o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Talabalarga aniq kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan individual o‘quv rejalarini taklif etiladi. Shu bilan birga, reflektiv amaliyot va mustaqil o‘rganish imkoniyatlari kengaytirilgan. Kanadada hamshiralik ta’limi jarayonida talabalarni mustaqil ravishda qaror qabul qilishga o‘rgatish muhim hisoblanadi. Bu yondashuv natijasida talabalarning kasbiy mustaqilligi va mas’uliyati oshadi.

4. Skandinaviya mamlakatlari: Bu davlatlarda hamshiralik ta’limi insonparvarlik yondashuvi va interaktiv metodlarga asoslanadi. Talabalarga stress va favqulodda holatlar bilan ishlash bo‘yicha maxsus treninglar o‘tkaziladi. Virtual reallik va simulyatsiya dasturlari orqali talabalar real vaziyatlarni boshdan kechirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, hamshiralarning bemorlar bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratiladi.

Autentik kompetensiyani shakllantirishda samarali yondashuvlar

- **Integratsiyalashgan ta’lim tizimi:** Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni uyg‘unlashtirish, talabalarni klinik sharoitlarda faol ishtirok etishga jalg etish.
- **Interaktiv va innovatsion texnologiyalar:** Simulyatsiya markazlari, virtual laboratoriylar va onlayn platformalardan foydalanish.
- **Reflektiv amaliyot:** Talabalarning o‘z faoliyatini tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- **Mentorlik tizimi:** Tajribali mutaxassislarning yosh hamshiralar bilan ishlashi orqali kasbiy o‘sishiga ko‘maklashish.
- **Xalqaro tajribalar asosida ta’lim tizimini rivojlantirish:** Xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini milliy ta’lim tizimiga moslashtirish orqali o‘quv jarayonini boyitish. Turli metodikalardan foydalangan holda situatsion o‘yinlarning ko‘plab modifikatsiyalari mavjud. Ularning tanlovi aniq pedagogik vazifalar bilan belgilanadi. O‘yinda modellashtirilgan vaziyat haqiqiy hayotga iloji boricha yaqin bo‘lishi kerak.⁷³

Xulosa

⁷³ Жураева, М. Т. К., & Астонова, Г. Р. (2019). Использование социальных форм для повышения эффективности занятий (в нефилологическом направлении). *Вестник науки и образования*, (20-3 (74)), 20-22.

Hamshiralik ta'limida autentik kompetensiyani rivojlantirish zamonaviy sog'liqni saqlash tizimi ehtiyojlariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlashning asosiy sharti hisoblanadi. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, autentik kompetensiyaga ega bo'lgan hamshiralalar bemorlar bilan samarali muloqot qilish, tezkor va aniq qarorlar qabul qilish hamda kasbiy etikaga amal qilishda yuqori natijalarga erishadilar. Milliy ta'lim tizimimizda ushbu ilg'or yondashuvlarni joriy etish hamshiralik kasbining nufuzini oshirish va sog'liqni saqlash tizimining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, uzlusiz kasbiy rivojlanish, xalqaro hamkorlik va innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali hamshiralik ta'limining samaradorligini oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Benner, P. (1984). *From Novice to Expert: Excellence and Power in Clinical Nursing Practice*. Addison-Wesley.
2. Jeffries, P. R. (2012). *Simulation in Nursing Education: From Conceptualization to Evaluation*. National League for Nursing.
3. Schön, D. A. (1983). *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. Basic Books.
4. World Health Organization. (2021). *Global Strategic Directions for Nursing and Midwifery 2021–2025*.
5. National Council of State Boards of Nursing. (2020). *NCSBN Simulation Guidelines for Prelicensure Nursing Programs*.
6. Karimova, M. (2023). EFFEKTIVE WEGE ZUR ENTWICKLUNG DER BERUFLICHEN KOMMUNIKATIVEN KOMPETENZEN IM FREMDSPRACHENRECHT BEI ZUKÜNFTIGEN MEDIZINISCHEN FACHKRÄFTEN. In *Fergana state university conference* (pp. 32-32).
7. Madinabonu, K. (2025). DEVELOPMENT OF AUTHENTIC COMPETENCE IN TEACHING GERMAN TO NURSES. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(6), 182-184.
8. Karimova, M. (2022). BESONDERHEITEN DES FREMDSPRACHLERNENS AN EINER MEDIZINISCHEN HOCHSCHULE WÄHREND DER COVID-19-PANDEMIE. *Архив научных исследований*, 2(1).
9. Жураева, М. Т. К., & Астонова, Г. Р. (2019). Использование социальных форм для повышения эффективности занятий (в нефилологическом направлении). *Вестник науки и образования*, (20-3 (74)), 20-22.
10. Yigitaliyeva, N. (2023). PEDIATRIYADA SIMULYATSIYADAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, 1(8). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/446>
11. Анваров, А., & Ирискулова, Ф. (2023). ЧЕТ ТИЛЛАРИНИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ТИББИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИНИНГ КАСБИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. *Engineering problems and innovations*.